

---

## Qo'mondon va yoshlar uchrashuvi

Rishton tumanidagi eksklav hududi Cho'ng'ara mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 44-umumiy o'rta ta'lim maktabida Sharqiy xarbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, general mayor Saidov Aybek Azatovich va yoshlar o'rtasida "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda general mayor Aybek Saidov hamda Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqovlar so'zga chiqib, Davlatimiz rahbari tomonidan bugungi kunda yoshlarga berayotgan e'tibori, yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va hech bir yosh e'tibordan chetda qolmasligi haqida amalga oshirilayotgan islohotlarni aytishib, yoshlarni bugungi kunda qiynab kelayotgan muammolar, takliflari bilan tanishishdi.

2024-11-28 10:38:45